

## RESPUBLIKAMIZDA O‘ZBEK TILINI DAVLAT TILI SIFATIDAGI NUFUZINI OSHIRISH BO‘YICHA QILINAYOTGAN ISHLAR

*Yusupova Soniya Umedboy qizi*  
*Buxoro davlat pedagogika instituti*  
*O‘zbek va rus tillar kafedrası*  
*1-bosqich talabasi.*  
*soniyayusupova992@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ona tili rivojlanish tarixi hamda mamlakatimizda davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish bo‘yicha qilinayotganlar ishlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** davlat tili, nufuzi, rivojlanish, ta‘lim, fikr, mulohaza

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda Davlat tilining nufuzi va mavqeyini oshirish bo‘yicha salomoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Ikki yilcha muqaddam Mamlakatimiz rahbarining davlat tili haqidagi qonunning 30 yilligini munosib nishonlash to‘g‘risidagi qarori, e‘lon qilindi. 2019- yil 21-oktabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmonining qabul qilinishi o‘zbek tili tarixida, davlat tili taqdir-taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi. O‘tgan yildan 21-oktabr sanasini yurtimizda “O‘zbek tili bayrami” sifatida tantanali nishonlay boshladik. Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish bo‘yicha alohida tuzilma tashkil etildi. Yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste‘molga kiritish borasidagi ishlarni tartibga soladigan Atamalar komissiyasi o‘z faoliyatini boshladi. Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish maqsadida o‘tgan yilning boshida bu borada Hukumatning maxsus qarori e‘lon qilindi. Endilikda barcha barcha hokimlik tizimida, boshqaruv idoralarida, muassasa, korxon va tashkilotlarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlash masalalari bo‘yicha rahbarning maslahatchisi lavozimi joriy qilindi, ularning lavozim vazifalari belgilandi. Filologik yo‘nalishda bo‘lmagan oliy o‘quv yurtlarida o‘zbek tili va adabiyoti fanlarini o‘qitishga barham berilgan edi. Prezidentimiz tashabbusi bilan hozirda barcha oliy ta‘lim muassasalarida o‘zbek tili va adabiyoti fani o‘qitiladigan bo‘ldi. Yaqin fursatda Yangi O‘zbekiston talablari mos, yanada takomillashtirilgan «Davlat tili haqida»gi qonunning yangi tahririni qabul qilamiz. Bir paytlari burchakka siqib qo‘yilgan, ovozini ko‘tarmay yashashga mahkum bo‘lgan ona tilimizning, ayniqsa, keyingi ikki-uch yilda qadri, nufuzi misli ko‘rilmagan darajada yanada ortdi. Davlat tiliga e‘tibor - mustaqillikka e‘tibor sifatida baho topdi. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz

timsoli, bebaho ma'naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o'zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta'sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo'lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o'lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo'shiqlariga quloq tutishining o'zi kifoya. Turkiy tillarning katta oilasiga mansub bo'lgan o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, uning orzu-intilishlari, dardu armonlari, zafarlari va g'alabalari bilan chambarchas bog'liqdir. Ajdodlarimiz aynan ona tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelgan. Shu tilda buyuk ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratgan. Inson Vatan tushunchasini ilk bor ona tilida angelaydi, qalbiga tinchlik va xotirjamlik bag'ishlovchi allani ana shu tilda eshitadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, til, millat, Vatan tushunchalari doimo yonma-yon. Aslida ham til millatning madaniyati va ma'naviyati, qadim tarixi hamda o'sha millatga xos urf-odatlar majmuini yaqqol ifodalaydi. Til tirik bo'lsa, millat yashaydi. O'zbek tilining necha ming yillik tarixga ega ekanligini bilish uchun Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Hojib asarlarini o'qish lozim. Ana shundagina betakror tilimiz eng ko'hna tillardan biri ekaniga amin bo'lasiz. Hazrat Navoiy esa «Tilga e'tibor – elga e'tibor» iborasi bilan bizni ona tilimizdan faxrlanishga, g'ururlanishga undadi, ana shu tilda «Xamsa»ni bitib, uni yuksaklarga ko'tardi. Zamondosh tilshunoslarimizdan biri: «Navoiy ijodi tilimizni o'rganish uchun cheksiz ummondir», degan edi. Alisher Navoiyning ulug' maqsadi turkiy tilning ifoda imkoniyatlarini va uning badiiy xususiyatlarini dunyoga ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Ulug' ajdodimizning asarlarini o'qiganimizda o'zbek tilining ildizi qanchalik chuqur ekanligi, bu tilning imkoniyatlari naqadar kengligini anglaymiz. Til – millatning eng birinchi belgisi. Uning ravnaqi shu xalq ravnaqi bilan chambarchas bog'liq. Til, avvalo, milliy mustaqillik shahodatnomasi. Bosh qomusimizda ham davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Shu tariqa o'zbek tili qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi. Davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi esa tilimizning jamiyatdagi mavqeini yanada yuksaltirdi. Xalqimizning muqaddas qadriyatlaridan biri bo'lgan ona tilimiz o'zining qonuniy maqomi va himoyasiga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham Davlat tilining maqomi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo'yildi. Prezident Sh.Mirziyoyev ham OAV dagi chiqishlarida va qabul qilingan farmonlarida, o'zbek tilini yanada rivojlantirish, barcha sohalarda o'zbek tilidan to'laqonli foydalanish, lotin yozuviga asoslangan alifboni takomillashtirish va boshqa millat vakillarining til o'rganishi uchun sharoitlar yaratishning muhimligini ta'kidlab o'tmoqda. Til to'g'risidagi qonun Konstitutsiya bilan mustahkamlanganidan keyin ona tilining mavqei yanada mustahkamlanib, rivojlanishi uchun qator Qonun va qarorlar qabul qilindi. Prezidentimizning 2019-yil 21-oktabrdagi «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi apparatining

tarkibiy bo'linmasi hisoblangan "Davlat tilini rivojlantirish departamenti" tashkil qilindi. Bundan ko'zlangan maqsad Davlat tilini rivojlantirish, davlat tilining amal qilishi bilan bog'liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash, o'zbek tilining yozma matni me'yor va qoidalarini ishlab chiqishdan iborat. O'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini tubdan oshirish, unib-o'sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an'ana va qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to'laqonli joriy etishni ta'minlash, O'zbekistondagi millat va elatlarning tillarini saqlash va rivojlantirish, davlat tili sifatida o'zbek tilini o'rganish uchun shart-sharoitlar yaratish, o'zbek tili va til siyosatini rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalish va vazifalarini hamda istiqboldagi bosqichlarini belgilash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 20-oktyabr kuni "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-fevralda "Rahbar kadrlar va mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslarning davlat tilini bilish darajasini aniqlash va ularga davlat tilini bilish bo'yicha daraja sertifikatini berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori tasdiqlandi. Qaror bilan 2021-yil 1-apreldan boshlab o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha bilimni baholashning milliy test tizimi asosida rahbar kadrlarning davlat tilida rasmiy ish yuritish hamda mas'ul lavozimlarga tayinlanadigan shaxslar uchun davlat tilini bilish darajasini aniqlash va sertifikat berish tizimi joriy etildi. Bu test tizimi davlat tilida ish yuritish sohasining yuksak rivojiga xizmat qilishi kutilmoqda. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish choratadbirlari to'g'risida"gi farmonida davlat tilini rivojlantirish borasidagi normativhuquqiy hujjatlar loyihalarini tayyorlash, davlat tilini rivojlantirish bo'yicha dastur va «Yo'l xaritalari»ni ishlab chiqish, «O'zbek tili bayrami kuni»ni nishonlash bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish, ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni muomalaga kiritish kabi bir qancha vazifalarni amalga oshirish belgilandi. Bu hujjat yurtimizda tilimiz rivoji, uni saqlash va rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda 50 milliondan ziyod aholi o'zbek tilida so'zlashadi. Bu ona tilimizning dunyodagi yirik tillardan biri ekanidan dalolat. O'zbek tilining O'zbekiston hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari asosan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va "Davlat tili haqida"gi Qonuni bilan tartibga solinadi. Konstitutsiyaning 4-moddasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida davlat tili o'zbek tilidir va uning hududida yashovchi barcha millat va elatlarning tillari hurmat qilinishi qonun bilan kafolatlangan. Davlat tili to'g'risidagi qonunning 1-moddasiga ko'ra, O'zbekistonda davlat tili o'zbek tilidir. Shu bilan birga, O'zbekistonda yashovchi turli millat va elatlar o'z ona tilini qo'llashlarini kafolatlash maqsadida Qonun o'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi mamlakatdagi boshqa xalqlarning o'z ona tilini



qo'llash huquqiga monelik qilmasligini ham bayon etgan. Qonunga ko'ra, turmushda, shaxslararo va millatlararo muomalada fuqarolar o'z xohishlariga ko'ra istalgan tilda muloqot qilishlari mumkin. O'zbek tilining izohli lug'atida "turmush" so'ziga "insonning yashash, kun kechirish tarzi, kundalik hayoti" deya ta'rif berilgan. Demak, kundalik hayotda O'zbekiston hududida yashovchi har bir shaxs o'zi istagan tilda gapirishga haqqi bor. Masalan, kishilar o'zaro muloqotda rus yoki tojik tilidan foydalanganlari uchun ularni hech kim kamsitishi mumkin emas. Ushbu kafolatni yanada mustahkamlash maqsadida, Qonunning 4- moddasida O'zbekiston "hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo'lish ta'minlanadi" deb yozilgan. Davlat tili to'g'risidagi qonunning 14-moddasiga ko'ra, O'zbekiston hududida yashovchi shaxslar davlat tashkilotlari va muassasalariga ariza va shikoyatlarini davlat tilida yoki boshqa tillarda topshirishlari mumkin. Demak, davlat organiga yozilgan ariza yoki shikoyatni faqat davlat tilida yozilmagani uchungina qabul qilmaslik mumkin emas. Qonunning 9-moddasiga ko'ra, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarida ish davlat tilida yuritiladi deb ko'rsatib o'tilgan. Mahalliy hokimiyat va boshqaruv organlarining hujjatlari ham davlat tilida qabul qilinib, davlat tilida e'lon qilinishi kerak. O'zbek tilida qabul qilingan qonunlarning, davlat va mahalliy hokimiyat va boshqaruvi organlari hujjatlarining tarjimalari boshqa tillarda ham e'lon qilinishi mumkin. Ushbu qoida O'zbekiston hududida yashovchi, ammo davlat tilini bilmaydigan yoki yaxshi bilmaydigan fuqarolar manfaatlarini himoya qilish maqsadida qabul qilingan. Bugungi kunda ona tilimiz siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanilib, jahon minbarlarida baralla yangramoqda. Prezidentimizning BMT Bosh Assambleyasining 2020-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan 75- sessiyasi va bu yil sentabr oyidagi 76-sessiyasida o'zbek tilida nutq so'zlashi esa tilimizning jahon miqyosidagi nufuzini yana bir bor mustahkamladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining OAV va Xalqaro minbarlardagi nutqlari.
3. lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
4. Internet ta'lim saytlari.
5. Ўзбек тилининг кирилл ва лотин алифболаридаги имло луг'ати (Тузувчилар: Т.Тог'аев, Г.Тавалдиева, М.Акромова), -Т.: "Шарқ" нашриёт-матбаа концерни Бош таҳририяти, 1999.
6. Laylo J. O. R. NAVOIY ASARLARIDAGI OZIQ-OVQAT VA O'SIMLIK LARNING LINGVOMADANIY TADQIQI //News of UzMU journal. – 2024. – Т. 1. – №. 1.3. – С. 299-302.
7. Jiyanqulovna J. L. TIL, MILLAT VA MADANIYAT MUNOSABATI //THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 39-43.